E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Inson huquqlari — eng oliy qadriyat

Xoldorova Zuhra Faxriddinovna

JDPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi

1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri o’z fuqorolarining huquq va erkinliklarini taminlash va kafolatlashdir . Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi Konstutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklarni taminlaganlik darajasi inson huquq va erkinliklari borasida davlatning o’z ichki kafolatlari va xalqaro huquqiy kafolatlari hamda inson huquqlarini taminlashning maqsad va vazifalari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Inson , huquqlar , erkinliklar , himoya qilish , kafolat , jamiyat , O’zbekiston , konstutsiya , mamlakat , islohat , qonunchilik , asos , Milliy strategiya .

Kirish : Inson huquqlari har bir alohida shaxsning qadr qimmati va erkinliklari himoya qilinishini taminlaydigon qoidalar majmuasidir . Ular huquqiy davlat konsitutsiyaviy huquqning negizini tashkil etib shaxsning huquqiy maqomi asosini va asosiy huquqlarini mujassamlashtiradi . Xalqimiz azaldan erksevar bo’lgan beva-bechoralar , yetim yesirlar , nochor va nogironlarga madad qo’lini cho’zishni insoniy burch hisoblagan . Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestodayoq inson huquqlarining ustuvorligi , insonlarning jamoa bo’lib yashash tarzi ular shuningdek davlat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar , jamoa hayoti bilan bog’liq masalalarni birgalikda birgalikda hal etish tartibi qayt etilgan . Insoniyat rivojlangan dunyoda yashar ekan hamisha erkinliklar va o’z huquqlari taminlanishiga intilib kelgan . Tarixga nazar soladigan bo’lsak adolatli davlat haqida qarashlar bayon etilgan asarlar bisyor . Ayrim davlatlar tarixiy kurashlar natijasida mamlakatda inson huquqlarini himoyasini taminlovchi qonunlarga ega bo’lganlar . Jumladan antik davlatlardagi 12 jadval qonuni , Angliyadagi erkinlik partiyasi , dastlab AQSH dagi Mustaqillik deklaratsiyasi (1776) va Fransiyada inson va erkinliklari deklaratsiyasi (1789) va boshqa shu kabi inson huquqlari bilan bog’liq qonunlarni misol keltirish mumkin . Bundan tashqari , Inson huquqlarini himoya qilishda va ularga berilgan huquqlardan foydalanishida Sohibqiron Amir Temur amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovardir . Sohibqironning butun hayoti va kurashi insonni qadirlash , uning yaxshi hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish bilan chambarchas bog’liqdir , U hukumronlik qilgan davrda inson huquqlarini kamsitishga qaratilgan har qanday urinishlarga chek qo’yilgan va bunday urinishlarning rahnomolari hamda ishtrokchilari qattiq jazolangan . “ Yana buyurdimki , - deb yozadi Sohibqiron – agar (har yer va elning) amaldorlari va kalontorlari oddiy fuqorolarga jabr- zulim qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetqazgan bo’lsa yetqazilgan zararni kalontorlardan undirib , jabr ko’rganlarga bersin toki ular yana o’z hollariga kelsin . Bunda buyuk bobomizning insonning qadr qimmati va huquqlarini qadirlagan va himoya qilgan ulug’ zodlardan biri ekanligini ko’rishimiz mumkin . Insonlarning huquq va erkinliklarining eng muhim Konstutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklarni kafolatlash yani amal qilinishi taminlashdir Buning uchun mukammal tizim yaratilishi zarur . Konsitutsiyada huquqiy normalar belqilansada , ularning amalga oshishini taminlovchi mehanizim bo’lmasa bu huquq va erkinliklar qog’ozda qolib ketaveradi . Huquq va erkinliklarni taminlashni jamiyatni rivojlantrishdagi ilg’or vazifa deb qaralishi inson huquq va erkinliklarini so’zda yoki qog’ozda emas ammaliy hayotda joriy qilish zarurligi haqidagi birinchi Prezidentimiz fikirlari huquq va erkinliklarni taminlash muhim ekanligi takidlangan . Hozirgi vaqtda O’zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo’yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga jumladan , BMT ning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ , pratokoliga qo’shilgan bo’lib ularning amalga oshish yuzasidan BMT ning inson

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy maruzalarni taqdim etib kelmoqda . Bugun mamlakatimizda jamiyatning barcha soxalarida jumladan , inson huquqlari , erkinliklari va qonuniy manfatlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar ro'y bermoqda . Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan . Prezidentning xalq va virtual qabulxonalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi bu borada muhim qadam bo'ldi . Bu chora-tadbirlar " xalq davlat orginlariga emas , davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak degan insonparvarlik tamoyilini to'la ro'yobga. Haqiqatdan ham O'zbekistondagi islohatlarning zamirida inson manfatlari hamma narsadan ustun degan hayotbaxsh g'oya mujassam shu sababli jamiyatda o'zaro , tenglik adolat va haqiqatni qaror toptirish uchun ham inson huquqlari birinchi galda asosiy qonunlarda kafolatlanadi . Bosh qonunimizda inson , uning hayoti , erkinligi , shani qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi e'tirof etilgan . Aynan uning ikkinchi bo'lim , inson va fuqorolarning asosiy huquqlari , erkinliklari va burchlari deb nomlanadi . 7 bobdan iborat.iUshbu bo'limda fuqorolik , shaxsiy huquq va erkinliklar , siyosiy huquq , iqdisodiy va ijdimoiy huquqlar inson huquqlari va erkinliklari kafolatlovchi hamda fuqorolarning burchlari belgilab berilgan . Xususan Konsitutsiyamizning 26- moddasi ikkinchi qismida hech kim qiynoqga solinishi zo'ravonlikka shavqatsiz yoki inson qadr – qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi taziqqa duchor etilishi mumkin emas deb belgilab qo'yilgan . Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996- yil 31-oktabrdagi " Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy markazini tuzish to'g'risidagi farmoni va 2020- yil 22- iyundagi " Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasining tasdiqlanganligi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga , Inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga , mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi . Birgina " Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risidagi farmonning imzolanganligi inson huquqlari va erkinliklari muhofaza etishning tasirchan vositasini barpo etishga respublika fuqorolarida huquqiy madaniyatning shakllantirishga xizmat qiladi . Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi esa huquqiy demokratik davlatning noyob xususiyatidir , shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining tashkil topishi O'zbekistonda inson , uning hayoti , erkinligi , shani qadr qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishining yana bir bor yorqin dalilidir .

Xulosa : O'zbekistonning demokratik o'zgarishlariga sodiqligini namoyish qilish , yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanish davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi . Bunda jamiyatimizda mavjud milliy insitutlar ichida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining o'rni beqiyosdir . Prezidentimiz biz yoshlarga berilayotgan huquq va erkinliklaridan to'g'ri oqilona foydalanishimiz lozimdir . Biz bo'lajak huquqshunoslar sifatida bu imkoniyatlardan unumli foydalanib mustaqil taraqiyotimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shsak davlatimiz rahbarining ishonchini oqlagan bo'lamiz .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi , Toshkent " O'zbekiston " 2018 . 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 22 – iyundagi " Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF – 6012 sonli farmoni qonun hujjatlari milliy bazasi 22.06.2020-yil .
2. O.A Tadjiaboyeva , K.R Ramozonova " Inson huquqlari " (15 – 16 bet) o'quv qo'llanma) – Toshkent : O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati . 2010 – yil .